<b>Abdushukurov Eldor Zafarjonovich, Xudaynazarova Dilnoza G'afurovna</b>	



UDC 621.928.93:66.069.83

# SANOAT HAVO TOZALASH TIZIMLARIDA FILTRATSIYA QURILMALARINI MODELLASHTIRISH VA PARAMETRIK OPTIMALLASHTIRISH: ZAMONAVIY YO'NALISHLAR TAHLILI

## Tursunov Ahror Aminjon o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti  
Texnologik mashina jihozlar  
kafedrasida doktoranti, PhD.  
ORCID: 0000-0003-2427-4375



## Sharibaev Nosir Yusupjanovich

Namangan davlat texnika universiteti  
Elektr energetika kafedrasida professori  
ORCID: 0009-0000-3482-5092



## Djuraev Sherzod Sobirjonovich

Namangan davlat texnika universiteti  
Avtomatika kafedrasida dotsenti, PhD  
ORCID: 0009-0008-3976-3757



**Annotatsiya:** Ushbu qiyosiy-tahliliy maqolada 2020–2023-yillar oralig'ida nufuzli xalqaro jurnallarda chop etilgan 13 ta xalqaro tadqiqot ishlari sistematik tahlil qilingan bo'lib, sanoat havo tozalash tizimlarida filtratsiya qurilmalarini raqamli modellashtirish va parametrik optimallashtirish sohasidagi zamonaviy yo'nalishlar ko'rib chiqilgan. Tahlil natijasida sohadagi tadqiqot ishlarining to'rtta ustuvor yo'nalish atrofida to'planayotgani aniqlandi: filtratsiya qurilmalarining konstruktiv-geometrik parametrlarini optimallashtirish; Reynolds Stress Model va Diskret Faza Modeli kabi ilg'or hisoblash gidrodinamikasi (CFD) metodologiyalarini takomillashtirish; magnit maydon, nam filtrlash va ikki bosqichli dinamik ajratish kabi yangi fizik mexanizmlarni tatbiq etish; hamda sun'iy intellekt usullarini loyihalash jarayoniga integratsiyalash. Asosiy miqdoriy ko'rsatkichlar sifatida quyidagilar qayd etilgan: to'rt kirish oqimli N4 konstruksiyasi eng past kesish diametrida ta'minlagan; silindri vorteks stabilizatori 3 mkm dan kichik zarrachalar uchun samaradorlikni 5,52% ga oshirgan holda bosim yo'qotilishini atigi 3,61% ga ko'paytirgan; PCA-PSO-SVR gibrid modeli korrelyatsiya koeffitsienti 0,982 ga erishgan. Natijalar gibrid konstruktiv va intellektual yondashuvlarning integratsiyasi sanoat havo tozalash texnologiyalarini yangi bosqichga ko'tarish imkonini berishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** filtratsiya qurilmasi, havo tozalash tizimi, CFD modellashtirish, parametrik optimallashtirish, RSM turbulentslik modeli, DPM zarrachalar modeli, Q-mezon vorteks identifikatsiyasi, magnit maydonli filtrlash, nam filtrlash, fraksion samaradorlik, PCA-PSO-SVR, sun'iy intellekt, sistematik sharh.

**Аннотация:** В данной сравнительно-аналитической статье проведён систематический анализ 13 научных

исследований, опубликованных в престижных международных журналах в период 2020–2023 гг., и рассмотрены современные направления цифрового моделирования и параметрической оптимизации фильтрационных устройств в системах промышленной очистки воздуха. Результаты анализа показали, что исследования в данной области концентрируются вокруг четырёх приоритетных направлений: оптимизация конструктивно-геометрических параметров фильтрационных устройств; совершенствование современных методов вычислительной гидродинамики (CFD), включая Reynolds Stress Model (RSM) и Discrete Phase Model (DPM); внедрение новых физических механизмов, таких как магнитное поле, мокрая фильтрация и двухступенчатое динамическое разделение; а также интеграция методов искусственного интеллекта в процессы проектирования и управления. В качестве основных количественных результатов установлено, что конструкция N4 с четырьмя входными потоками обеспечила наименьший диаметр отсечки; цилиндрический стабилизатор вихря повысил эффективность улавливания частиц размером менее 3 мкм на 5,52 % при увеличении потерь давления всего на 3,61 %; гибридная модель PCA-PSO-SVR достигла коэффициента корреляции 0,982. Полученные результаты свидетельствуют о том, что интеграция конструктивной оптимизации и интеллектуальных алгоритмов открывает новые возможности для повышения эффективности технологий промышленной очистки воздуха.

**Ключевые слова:** фильтрационное устройство, система очистки воздуха, CFD-моделирование, параметрическая оптимизация, модель турбулентности RSM, модель дискретной фазы DPM, Q-критерий идентификации вихрей, фильтрация в магнитном поле, мокрая фильтрация, фракционная эффективность, PCA-PSO-SVR, искусственный интеллект, систематический обзор.

**Abstract:** This comparative-analytical article presents a systematic analysis of 13 research papers published in prestigious international journals during 2020–2023 and examines current trends in digital modeling and parametric optimization of filtration devices used in industrial air purification systems. The analysis revealed that contemporary studies are mainly concentrated in four priority areas: optimization of the structural and geometric parameters of filtration devices; improvement of advanced computational fluid dynamics (CFD) methodologies, including the Reynolds Stress Model (RSM) and the Discrete Phase Model (DPM); implementation of new physical mechanisms such as magnetic-field-assisted filtration, wet filtration, and two-stage dynamic separation; and integration of artificial intelligence methods into design and control processes. Several significant quantitative results were identified: the four-inlet-flow N4 configuration provided the smallest cut-off diameter; the cylindrical vortex stabilizer increased the collection efficiency for particles smaller than 3 μm by 5.52% while increasing pressure loss by only 3.61%; and the PCA-PSO-SVR hybrid model achieved a correlation coefficient of 0.982. The obtained results demonstrate that the integration of structural optimization and intelligent algorithms can significantly enhance the efficiency of industrial air purification technologies.

**Keywords:** filtration device, air purification system, CFD modeling, parametric optimization, RSM turbulence model, DPM particle model, Q-criterion vortex identification, magnetic-field-assisted filtration, wet filtration, fractional efficiency, PCA-PSO-SVR, artificial intelligence, systematic review.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasida sanoatni jadal rivojlantirish sharoitida kimyo, to'qimachilik, neft-gaz va energetika tarmoqlarida havo tozalash tizimlariga bo'lgan talab yildan yilga ortib bormoqda. Filtratsiya qurilmalari gaz-qattiq va gaz-suyuq ikki fazali oqimlarni markazdan qochma kuch ta'sirida ajratishga mo'ljallangan qurilmalar bo'lib, ularning sodda konstruktiv tuzilishi, past ekspluatatsiya xarajatlari va keng qo'llanilish imkoniyatlari tufayli kimyo, neft-gaz, to'qimachilik, sement va energetika sanoatlarida ko'p yillardan beri keng qo'llanib kelinmoqda. Biroq ekologik me'yorlarning qat'iylashib borishi va energiya sarfini kamaytirish zaruriyati mavjud filtratsiya qurilmalarining bir qator muhim kamchiliklarini — samaradorlikning pastligi, energiya sarfining yuqoriligi va mayda zarrachalarni ushlab qolish qobiliyatining chegaralanganligi — yanada yaqqolroq namoyon etmoqda. Aerodinamik diametri 5 mkm dan kichik bo'lgan mayda dispersli  $PM_{2.5}$  fraksiyali zarrachalarni ushlab qolishda an'anaviy silindrsimon filtratsiya qurilmalari 60-75% atrofida qoladigan samaradorlikni namoyish etadi — bu zamonaviy sanitariya-gigiyena va ekologik me'yorlardan sezilarli darajada past.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat havo tozalash tizimlarida filtratsiya qurilmalarini takomillashtirishga qaratilgan 2020–2023 yillardagi xalqaro tadqiqotlar asosan to'rtta ustuvor yo'nalishda olib borilgan.

Birinchi yo'nalish filtratsiya qurilmalarining ichki geometriyasini o'zgartirish orqali ajratish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Wang va hammualliflar teskari konussimon filtr an'anaviy silindrsimon konstruksiyalarga nisbatan yuqori samaradorlik ko'rsatishini tajribalar orqali asoslagan. Le va Yoon to'rtta kirish oqimiga ega innovatsion N4 modelini raqamli tahlil qilib, ushbu model eng kichik kesish diametrini ta'minlashini tasdiqladi. Duan ichki silindr va vorteks stabilizatorini qo'llash orqali 3 mkm dan kichik zarrachalar uchun tutish samaradorligini 5,52% ga oshirdi, bunda bosim yo'qotilishi atigi 3,61% ga ortdi.

Ikkinchi yo'nalish hisoblash gidrodinamikasi (CFD) metodologiyalarini takomillashtirishni o'z ichiga oladi.



Kuchli aylanuvchi va anizotrop turbulent oqimlarni modellashtirishda an'anaviy modellardan voz kechilib, Reynolds Stress Model (RSM) hamda Discrete Phase Model (DPM) kombinatsiyasi keng qo'llanilmoqda. Gao oqim maydonidagi simmetrik vorteks tuzilmalarini aniqlashda Q-mezon vorteks identifikatsiyasi usulini amaliyotga tatbiq etdi.

Uchinchi yo'nalish tadqiqotchilari ajratish jarayoniga qo'shimcha fizik kuchlarni kiritish orqali aerodinamik qarshilikni oshirmasdan samaradorlikni yaxshilashni o'rgangan. Safikhani jarayonga tashqi magnit maydonini, Oliveira esa mayda suv zarrachalarini kiritish (nam filtrlash) orqali umumiy samaradorlikni 11% ga oshirishga erishdi.

To'rtinchi yo'nalish sun'iy intellekt va adaptiv boshqaruv algoritmlarini integratsiya qilishga asoslangan. Zhang eksperimental ma'lumotlar yordamida filtr samaradorligini yuqori aniqlikda bashorat qiluvchi PCA-PSO-SVR gibrid modelini ishlab chiqdi. Liu o'zgaruvchan havo oqimi sharoitlarida ham barqaror ishlaydigan adaptiv boshqariluvchi dinamik filtr texnologiyasini taklif qildi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu izlanish qiyosiy-sistematik tahlil usuliga asoslanadi. Tahlil uchun sanoat havo tozalash tizimlaridagi filtratsiya qurilmalarining konstruktiv, gidrodinamik va boshqaruv jihatlarini tadqiq etgan 13 ta asosiy maqola tanlab olindi. Keyingi bosqichda manbalar uchta yo'nalish bo'yicha tasniflandi: konstruktiv-geometrik optimallashtirish, hisoblash gidrodinamikasi (CFD) metodologiyasi hamda yangi fizik ta'sirlar va sun'iy intellekt yondashuvlari. Tadqiqotlarning asosiy miqdoriy ko'rsatkichlari — ajratish samaradorligi, bosim yo'qotilishi va tutish diametri ( $\eta$ ) standartlashtirilgan tarzda qiyoslandi. Yakunda xalqaro natijalarni tanqidiy baholash orqali sohadagi asosiy muammolar, xususan, laboratoriya va sanoat masshtablari o'rtasidagi tafovut hamda yagona standartlashtirilgan o'lchov mezonlarining yo'qligi aniqlandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi 2020–2023 yillarda chop etilgan xalqaro ilmiy manbalar asosida filtratsiya qurilmalarini takomillashtirishning zamonaviy yo'nalishlarini aniqlash, erishilgan natijalarni tanqidiy baholash va kelgusi tadqiqotlar uchun ustuvor yo'nalishlarni asoslashdan iborat. Paxta sanoatida chang zarrachalarining mayda va yirik fraksiyalarini aniqlash usullari [16,17], filtratsiya qurilmalarining konstruktiv parametrlarini optimallashtirish [24,22], shuningdek real vaqt monitoringi va smart filtr tizimlarini integratsiyalash [18,19,20] sohasidagi so'nggi tadqiqotlar ushbu sharh uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.





Fig. 2. Geometry of the reference design S1.

1-rasm. Filtratsiya qurilmasining umumiy geometrik tuzilmasi va o'lchov parametrlari (Wang va boshq., [1])

Ushbu tahliliy ilmiy maqola uchun adabiyotlar quyidagi mezonlar asosida tanlangan: nashr yili 2020 va undan keyingi davr; Scopus yoki Web of Science ma'lumotlar bazalarida indekslangan jurnallarda chop etilganlik; filtr va multifiltratsiya qurilmalarining konstruktiv, gidrodinamik yoki boshqaruv aspektlarini bevosita tadqiq etish; yangi konstruktiv yechim yoki metodologik yondashuv taklif qilish kabi. Jami 13 ta maqola to'liq tahlil uchun tanlangan. Ushbu ishlar uchta keng yo'nalish bo'yicha tasniflandi: (1) konstruktiv-geometrik optimallashtirish; (2) gidrodinamik modellashtirish metodologiyasi; (3) yangi fizik ta'sirlar va intellektual yondashuvlar kabi.



2-rasm. Eksperimental tadqiqot qurilmasi: (a) sxematik diagramma, (b) haqiqiy jihoz, (c) PDPA o'lchov tizimi, (d) uch xil filtr konstruksiyasi (Duan va boshq., [2])

Zetao Wang, Guogang Sun va Yunnan Jiao tomonidan olib borilgan eksperimental tadqiqotda yirik masshtabli bir va ikki kirish oqimli filtratsiya qurilmalarining ish samaradorligi ikkita turli vorteks topuvchi bilan birgalikda taqqoslangan [1]. Tadqiqot natijalari vorteks topuvchi diametrining oshishi bosim yo'qotilishi va ajratish samaradorligini bir vaqtda kamaytirishini ko'rsatdi. Muhim topilma shundaki, teskari konussimon filtr modeli an'anaviy konstruksiyaga nisbatan yuqori ajratish samaradorligini namoyish etdi.

Gao va hamkasblari [8] turli kirish tuzilmalarining filtr oqim maydoniga ta'sirini Q-mezon asosidagi yangi vorteks identifikatsiyasi usuli yordamida o'rgandilar. Natijalar simmetrik volut kirishi (AVI) bir tangensial va oddiy volut kirish oqimlariga nisbatan yanada bir xil va simmetrik vorteks tuzilmasini hosil qilishini ko'rsatdi. Paxta sanoatida qo'llaniladigan siklon va multisiklon filtr qurilmalarining samaradorligini oshirish uchun konstruktiv parametrlarni optimallashtirish muhim ilmiy vazifa sanaladi [24]. Oldingi tadqiqotlarimizda zarracha o'lchami va konsentratsiyasining filtratsiya samaradorligiga ta'siri miqdoriy jihatdan o'rganilgan [21,22]. Le va Yoon tomonidan amalga oshirilgan raqamli tadqiqotda [6] to'rtta kirish oqimiga ega ikkita yangi innovatsion filtratsiya qurilmasi konstruksiyasi tahlil qilindi. CFD natijalari shuni ko'rsatdiki, N4 konfiguratsiyasi eng kichik kesish diametrini ta'minladi va oqim qarshiligini oshirmagan holda eng yaxshi umumiy ko'rsatkichlarni ko'rsatdi. Duan va hamkasblari [2] ichki silindrga ega yangi filtratsiya qurilmasidagi gaz-qattiq oqim xususiyatlarini batafsil o'rganib, an'anaviy konstruksiya bilan to'g'ridan-to'g'ri taqqosladilar. Reynolds Stress Model (RSM) kuchli aylanuvchi va anizotrop turbulent oqimlarni aniq tasvirlash uchun qo'llanildi. Natijalar ichki silindrning mavjudligi tezlik taqsimotini, bosim maydonini va ikkilamchi vorteks tuzilmalarini sezilarli darajada o'zgartirishini ko'rsatdi. Xuddi shu mualliflar keyingi tadqiqotda [7] Stairmand filtratsiya qurilmasidagi vorteksga bog'liq beqarorliklarni silindrli vorteks stabilizatorini joriy etish orqali yumshatishga qaratildi. Natijalar stabilizator 3 mkm dan kichik zarrachalar uchun samaradorlikni 5,52% ga oshirganini, shu bilan birga bosim yo'qotilishida atigi 3,61% lik oshishga olib kelganini ko'rsatdi. Chen va hamkasblari [3] torayuvchi filtratsiya qurilmasidagi ichki komponentlarning oqim naqshi va ish samaradorligiga ta'sirini eksperimental va CFD yordamida o'rgandilar. Topilmalar ichki komponentlarning joriy etilishi turbulent kinetik energiyani 80% gacha pasaytirganligi va tangensial tezlikni sezilarli darajada oshirganligi aniqlandi.






Fig. 12. The vortex lines graph of (a) the STI cyclone; (b) the SVI cyclone; (c) the AVI cyclone.

#### 4.5. Vortex center of the three cyclones

4-rasm. Turli filtr konstruksiyalarida (STI, SVI, AVI) turli balandliklarda vorteks chiziqlari grafigi:  $z = 10$  mm,  $-10$  mm,  $-300$  mm,  $-1500$  mm (Gao va boshq., [8])





Fig. 4. Contour plots for the time-averaged pressure. From left to right:  $Z = 0$  (center of the cyclone) and at  $Y = 0.87$  m (middle of the inlet height).

5-rasm. Vaqt o'rtachalashtirilgan bosim kontur grafiklari:  $Z = 0$  (filtr markazi) va  $Y = 0,87$  m (kirish balandligi o'rtasi) kesimlarida bosim taqsimoti [Pa] (Jia va boshq., [12])

Paxta sanoati korxonalarida uch bosqichli multisiklon tizimi orqali  $PM_{2,5}$  zarrachalarini  $65-70 \mu\text{g}/\text{m}^3$  dan  $15-20 \mu\text{g}/\text{m}^3$  gacha kamaytirish mumkinligi eksperimental yo'l bilan isbotlangan [22]. Bu natija WHO tomonidan belgilangan xavfsiz chegaraga yaqinlashadi va multisiklon texnologiyasining amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Safikhani va Allahdadi [4] tashqi magnit maydonning yangi konstruksiyadagi gaz-qattiq filtratsiya qurilmalari samaradorligiga ta'sirini o'rgandilar. Eulerian-Lagrange yondashuvi gaz-qattiq ikki fazali oqimni simulyatsiya qilish uchun qo'llanildi; zarracha traektoriyalari ham aerodinamik, ham magnit kuchlar ta'sirida kuzatildi. Polipropilen, temir va nikel zarrachalar ko'rib chiqildi. Natijalar magnit maydonning qo'llanilishi barcha zarracha turlari uchun kolleksiya samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Muhim jihati shundaki, takomillashtirilgan ajratish samaradorligi bosim yo'qotilishini oshirmay erishildi.



6-rasm. Turli zarracha materiallari (polipropilen, temir, nikel) va magnit kuchlanishlar (Mn = 2T, 3T, 4T) uchun aksial tezlik konturlari [m/s] (Safikhani va Allahdadi, [4])




Fig. 11. Effects of the magnetic field intensity on turbulent kinetic energy contours.

7-rasm. Magnit maydon intensivligining turbulent kinetik energiya (TKE) konturlariga ta'siri: magnit kuchlanish oshishi bilan TKE keskin kamayishi (Safikhani va Allahdadi, [4])

O'zbekistondagi paxtasanoat korxonalarida PM2.5 zarrachalarining atmosferaga chiqarilishi milliy va xalqaro

me'yorlardan sezilarli darajada oshib ketishi miqdoriy jihatdan tasdiqlangan [23]. 2020–2025 yillar monitoringi natijalari ko'rsatkichi, Toshkentda yillik o'rtacha PM2.5 konsentratsiyasi  $52,3 \mu\text{g}/\text{m}^3$  bo'lib, O'zbekistonning milliy standartlari ( $35\text{--}50 \mu\text{g}/\text{m}^3$ ) WHO chegarasidan 7–10 barobar oshganligini ko'rsatadi [23]. Bu holat sanoat filtratsiya tizimlarini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Oliveira va hamkasblari [10] suv zarrachali yordamida nam filtr yo'lakchalarni shakllantirish orqali kolleksiya samaradorligini yaxshilashga qaratildi. Natijalar kesish diametri taxminan 55% ga kamayishini va umumiy samaradorlikning 11% ga oshishini ko'rsatdi.

Liu va boshq. [11] teskari ikki bosqichli dinamik filtratsiya qurilmasini taklif qilib, CBM qazib olishdagi past mayda-ko'mir chiqarish samaradorligi muammosini hal etdilar.  $20\,000 \text{ m}^3/\text{kun}$  va  $1500 \text{ ayl}/\text{min}$  da  $5 \text{ mkm}$  zarrachalar uchun 91% ajratish samaradorligi erishildi. Tashqi elektrodvigatel orqali ichki aylanuvchi oqimni adaptiv boshqarish imkoniyati hatto  $\pm 25\%$  oqim o'zgarishida ham yuqori barqarorlikni ta'minladi. Xu Minghai va boshq. [13] fin diametri nisbati (FDR) va fin o'tkazuvchanligini o'zgartirib filtratsiya qurilmalarida oqim qarshiligini kamaytirish usullarini raqamli tarzda o'rgandilar.  $\text{FDR} = 2/5$  bo'lganda chiqarish samaradorligini 6,7% ga kamaytirgan holda Euler sonini 23,5% ga pasaytirish imkoni topildi. Zhang va boshq. [9] filtratsiya qurilmasi samaradorligini bashorat qilishda cheklangan eksperimental ma'lumotlar asosida yuqori aniqlikka erishish uchun PCA-PSO-SVR gibrid modelini taklif qildilar. Korrelyatsiya koeffitsienti 0,982 bo'lgan yuqori bashorat aniqligiga erishildi. Bu yondashuv keng qamrovli eksperimental sinovlarsiz yuqori samarali filtratsiya qurilmalarini loyihalash uchun samarali vosita taqdim etmoqda.




Fig. 1. Flowchart of the PCA-PSO-SVR proposed method.

8-rasm. PCA-PSO-SVR gibrid modeli ish jarayonining oqim diagrammasi: ma'lumotlarni normallashtirish, PCA dimensiyalash, PSO optimallashtirish va SVR modelini o'qitish bosqichlari (Zhang va boshq., [9])

2-jadval.


Asosiy tadqiqotlarning qiyosiy tavsifi

Muallif [#]	Konstruktiv yechim	Metod	Asosiy natija	Ilmiy yangilik
Wang [1]	Teskari konussimon, 2 kirish	Eksperiment	Yuqori $\eta$ , past $\Delta P$	Vorteks topuvchi diametrining ta'siri
Duan [2]	Ichki silindrli yangi filtr	RSM + DPM	PVC bostirildi, $\eta$ oshdi	Ichki silindr oqim barqarorligini ta'minlaydi
Chen [3]	Torayuvchi, ichki komponent	Euler-Lagr.+eksper.	TKE 80% kamaydi	Ichki komponent turbulentslikni bostiradi
Safikhani [4]	Magnit maydonli yangi filtr	RSM + DRW	$\eta$ oshdi, $\Delta P$ o'zgarmadi	Magnit maydon energiyasiz samaradorlik oshiradi
Luo [5]	Gaz-suyuq GLCC	VOF-CFD (Fluent)	Slug boshqaruvi optimal	Slug oqimi ta'sirini VOF bilan modellash
Le & Yoon [6]	To'rt kirish oqimli N4	CFD raqamli	Eng kichik d50, past $\Delta P$	Ko'p kirish oqimi $\eta$ oshiradi



Duan [7]	Silindri vorteks stabilizatori	Eksper. + raqamli	+5,52% $\eta$ ; +3,61% $\Delta P$	PVC bostirish — minimal jarima
Gao [8]	Simmetrik volut kirishi (AVI)	Q-mezon CFD	Simmetrik vorteks	Q-mezon vorteks identifikatsiyasi
Zhang [9]	Mavjud filtr (Al bashorat)	PCA-PSO-SVR	R = 0,982 aniqlik	Al bilan filtr $\eta$ bashoroti
Caliskan [10]	Modulli, ko'p kollektor	Eksperiment	4 ta fraksiya klassif.	Zarrachalarni klassifikatsiyalash
Oliveira [11]	Nam nayzchalari qo'shilgan	Euler-Lagr.+koag.	d50 -55%, $\eta$ +11%	Nam ajratish gidrodinamikasi
Wei [12]	Mavjud filtr (model)	Analitik model	VMEIV yuqori T da ham to'g'ri	Harorat ta'sirini hisobga olish
Liu [13]	Teskari ikki bosqichli dinamik	Eksper. + raqamli	91% $\eta$ , 5 mkm, barqaror	Adaptiv aylanuvchi oqim boshqaruvi

Izoh:  $\eta$  — ajratish samaradorligi;  $\Delta P$  — bosim yo'qotilishi; d50 — 50% tutish diametri; TKE — turbulent kinetik energiya; PVC — aylanuvchi vorteks o'zagi; AVI — simmetrik volut kirishi; VMEIV — maksimal samaradorlik kirish tezligi.



9-rasm. Yirik mashtabli filtratsiya qurilmasida bosim tebranishlarining PSD (quvvat spektral zichligi) va o'tkazuvchanlik tahlili: turli kirish tezliklarida chastota xarakteristikalarini ( $J_{ia}$  va boshq., [12])

Ko'rib chiqilgan tadqiqotlar majmuasini tahlil qilish bir qator umumiy tendensiyalarni yorqin namoyon etmoqda. Birinchidan, bir bosqichli silindrsimon konstruksiyadan ko'p bosqichli, ichki elementli yoki ko'p kirish oqimli tizimlar tomon aniq siljish kuzatilmoqda. Ikkinchidan, geometrik optimallashtirish va yangi fizik ta'sirlarning birlashtirilishi tendensiyasi kuchaymoqda. Uchinchidan, an'anaviy standart k- $\epsilon$  turbulentlik modelidan murakkab RSM modeli va Q-mezon vorteks identifikatsiyasiga o'tish metodologik taraqqiyotning belgisi sifatida namoyon bo'lmoqda. To'rtinchidan, AI va ma'lumotlar asosidagi modellashtirish kelajakda eksperimental sinovlarni qisman almashtirishi mumkin bo'lgan kuchli vosita sifatida yuzaga chiqmoqda. Tahlil qilingan adabiyotlar majmuasidan bilishimiz mumkinki, bunda bir qator hozirgacha hal etilmagan ilmiy-texnik muammolarni mavjud. Birinchi muammo laboratoriya va sanoat mashtablari o'rtasidagi tafovutga tegishli: ko'pchilik tadqiqotlar nazoratlangan sharoitlarda, kichik o'lchamli qurilmalarda bajarilgan bo'lib, olingan natijalarning  $Q > 10\ 000\ m^3/soat$  o'tkazuvchanlikka ega industrial tizimlar uchun validatsiyasi hali yetarlicha amalga oshirilmagan. Bu holat laboratoriyada samarali deb topilgan yechimlarning real ishlab chiqarish sharoitida ham shu ko'rsatkichlarni saqlab qolishini kafolatlamaydi. Ikkinchi muammo ilmiy natijalarning qiyoslilik darajasiga taalluqli. Turli mualliflar tomonidan taklif etilgan konstruktiv yechimlarni bevosita taqqoslashga imkon beruvchi yagona standartlashtirilgan uslubiy baza va umumiy qiyosiy mezonlari hozirgi vaqtda mavjud emas, bu esa sohadagi ilmiy bilimlarning tizimli umumlashtirilishiga to'sqinlik qilmoqda.

Uchinchi muammo intellektual boshqaruv tizimlarining etarlicha o'rganilmaganligida namoyon bo'lmoqda. Ko'rib chiqilgan 13 ta ishdan faqat bittasida adaptiv boshqaruv algoritmlarining filtratsiya samaradorligiga ta'siri

tadqiq etilgan. O'zgaruvchan texnologik yuklamalar va kirish parametrlari sharoitida ajratish samaradorligini barqaror darajada ushlab turuvchi intellektual boshqaruv tizimlari sohasidagi tadqiqotlar hali o'z ilmiy yechimini topganicha yo'q.

To'rtinchi muammo mayda dispersli zarrachalar uchun yuqori samaradorlikka erishish masalasiga daxldor.  $PM_{2.5}$  va undan kichik aerodinamik diametrli fraksiyalar uchun 95 foizdan yuqori ajratish samaradorligini ta'minlash zamonaviy filtratsiya texnologiyalarining hal etilmagan asosiy vazifasi bo'lib qolmoqda va ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarning dolzarbligi tobora ortib bormoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu qiyosiy-tahliliy sharh doirasida ko'rib chiqilgan 13 ta xalqaro tadqiqot sanoat filtratsiya qurilmalarini takomillashtirish sohasidagi zamonaviy ilmiy-texnik yutuqlarning yaxlit va ko'p qirrali manzarasini aks ettiradi. Amalga oshirilgan tahlil asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllandi.

Konstruktiv innovatsiyalar — ko'p kirish oqimli (N4), ichki silindri, vorteks stabilizatorli va torayuvchi geometriyalik konstruksiyalar an'anaviy silindrsimon filtratsiya qurilmasiga nisbatan fraksion samaradorlikni 5-15% gacha oshirgan holda bosim yo'qotilishini minimal darajada oshirgan.

Yangi fizik ta'sirlar — magnit maydon va mayda suv zarrachalari texnologiyalari ajratish samaradorligini bosim yo'qotilishini oshirmay yaxshilash imkonini beruvchi istiqbolli yo'nalish sifatida o'zini ko'rsatmoqda.

Modellashtirish metodologiyasi — RSM + DPM kombinatsiyasi kuchli aylanuvchi oqimlar uchun eng ishonchli yondashuv sifatida tasdiqlangan; Q-mezon vorteks identifikatsiyasi vorteks tuzilmasini yanada to'liq tushunish imkonini beradi.

Intellektual yondashuvlar — PCA-PSO-SVR gibrid modeli ( $R = 0,982$ ) va adaptiv dinamik boshqaruv tizimlari kelajakda filtratsiya qurilmalarini ham loyihalash, ham ekspluatatsiya qilishda sun'iy intellektning keng qo'llanilishiga zamin yaratmoqda.

Istiqbolli yo'nalishlar: (a) ko'p fizik ta'sirlarni birlashtiradigan gibrid konstruksiyalar; (b) raqamli egiz (digital twin) dasturlari asosidagi real vaqt boshqaruvi; (c) sanoat masshtabdagi eksperimental validatsiya; (d)  $PM_{1}$  va  $PM_{0.1}$  fraksiyalik ultramayda zarrachalarni ajratish muammosini hal etish.

Ushbu tahlil natijalaridan O'zbekiston sharoitida, xususan paxta tozalash sanoatida yangi avlod multifiltratsiya qurilmalarini loyihalashda ilmiy-metodologik manba sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Wang Z., Sun G., Jiao Y. Experimental study of large-scale single and double inlet cyclone separators with two types of vortex finder. *Powder Technology*, 2020.
2. Duan J., Gao S., Lu Y., Wang W., Zhang P., Li C. Study and optimization of flow field in a novel cyclone separator with inner cylinder. *Separation and Purification Technology*, 2021.
3. Chen G., Fan J., Zhang P., Wang W. Experimental and CFD investigation on effects of internals on the flow pattern and performance of a divergent cyclone separator. *Chemical Engineering Journal*, 2021.
4. Safikhani H., Allahdadi S. The effect of magnetic field on the performance of new design cyclone separators. *Advanced Powder Technology*, 2020.
5. Luo X., Ren J., Chen T., Wang Y., Lu Y., He L. Influence of slug flow on flow fields in a gas-liquid cylindrical cyclone separator. *Separation and Purification Technology*, 2022.
6. Le D.K., Yoon J.Y. Numerical investigation on the performance and flow pattern of two novel innovative designs of four-inlet cyclone separator. *Chemical Engineering and Processing*, 2021.
7. Duan J., Gao S., Hou C., Wang W., Zhang P., Li C. Effect of cylinder vortex stabilizer on separator performance of the Stairmand cyclone. *Powder Technology*, 2022.
8. Gao Z., Wang J., Liu Z., Wei Y., Wang J., Mao Y. Effects of different inlet structures on the flow field of cyclone separators. *Chemical Engineering Science*, 2022.
9. Zhang W., Zhang L., Yang J., Hao X., Guan G., Gao Z. An experimental modeling of cyclone separator efficiency with PCA-PSO-SVR algorithm. *Powder Technology*, 2020.
10. Caliskan M.E., Karagoz I., Avci A., Surmen A. An experimental investigation into the particle classification capability of a novel cyclone separator. *Powder Technology*, 2021.
11. Oliveira R.A.F., Guerra V.G., Lopes G.C. Improvement of collection efficiency in a cyclone separator using water nozzles: A numerical study. *Separation and Purification Technology*, 2022.
12. Wei Q., Sun G., Yang J. A model for prediction of maximum-efficiency inlet velocity in a gas-solid cyclone separator. *Chemical Engineering Science*, 2021.
13. Liu P., Ren Y., Feng M., Wang D., Hu D. A performance analysis of inverse two-stage dynamic cyclone



separator. Powder Technology, 2022.

14. Jia M., Wang D., Yan C., Song J., Han Q., Chen F., Wei Y. Analysis of the pressure fluctuation in the flow field of a large-scale cyclone separator. Powder Technology, 2022.

15. Xu M., Yang L., Sun X., Wang J., Gong L. Numerical analysis of flow resistance reduction methods in cyclone separator. Separation and Purification Technology, 2023.

16. Tursunov A.A., Djurayev Sh.S. Methods and devices for reducing air dust concentrations. International Journal on Orange Technology, Vol.5, Issue 11, 2023. <https://doi.org/10.31149/ijot.v6i3.4965>

17. Tursunov A.A. The problem of fine dust in the production process and methods of determining its concentrations. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), Vol.9, Issue 12, 2023.

18. Tursunov A.A. Enhancing cyclone equipment with smart filters and implementing SCADA for environmental management. American Journal of Library and Information Science Innovation, Vol.3, Issue 3, 2025. Pp.40-46.

19. Tursunov A.A. Development of mechatronic solutions for GIS-based urban air quality monitoring and decision support systems. Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science, Vol.3, No.5, 2025. Pp.37-46.

20. Tursunov A.A. Mechanisms for monitoring industrial ecology based on the integration of smart filters and SCADA systems. American Journal of Technology Advancement, Vol.2, No.5, 2025. Pp.1-5.

21. Tursunov A.A., Sharibaev N.Yu., Tokhirjonova M.R. Paxta tozalash korxonalarida ekologik xavfsizlikni ta'minlashda uch bosqichli multi-siklon changsizlantirish tizimining ilmiy asoslari. JIZPI Xabarnomasi, ISSN: 3060-4966, 2025, No.2. Pp.318-324.

22. Tursunov A.A., Sharibaev N.Yu., Tokhirjonova M.R. Advancing environmental safety in cotton mills through a three-phase multicyclone dust control system. American Journal of Technology Advancement, Vol.2, No.7, 2025. Pp.8-15.

23. Djurayev Sh.S., Tursunov A.A. Effect of particle size and concentration on multicyclone device efficiency. AIP Conference Proceedings, 3304, 030049, 2025. <https://doi.org/10.1063/5.0269110>

24. Abdullajanov B., Kholmatov M., Ergashkhojayeva S., Tursunov A.A., Shodmanov J. Comparative assessment of PM2.5 pollution in Uzbekistan and international air quality standards. Ecological Questions, 37(2026)1. <http://dx.doi.org/10.12775/EQ.2026.002>

25. Tursunov A.A., Sharibaev N.Yu., Djurayev Sh.S. Paxta sanoati pnevmotashish tizimlarida siklon qurilmalarining samaradorligini oshirish muammolari. JIZPI Xabarnomasi, ISSN: 3060-4966, 2026, No.1. Pp.131-138.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. May. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)